



ResearchGate



SEMANTIC SCHOLAR



IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245

VOLUME 7, ISSUE 2, 2024

## YER KADASTRINI YURITISH

M.A.Xudoynazarova

“TIQXMMI” MTU ning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti o‘qituvchisi

N.Rasulov

“TIQXMMI” MTU ning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti o‘qituvchisi

X.Davlatov

“TIQXMMI” MTU ning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti o‘qituvchisi

### Annotatsiya

Ushbu maqolada yer kadastrini yuritish mohiyati qisqacha yoritilgan. Davlat yer kadastro haqida tushuncha berilgan.

### Kalit so‘zlar

Yer kadastro, karta, yagona davlat kadastr tizimi, toifa, huquqiy rejim.

### Abstract

This article briefly explains the essence of land cadastre management. An understanding of the state land cadastre is provided.

### Key words

Land cadastre, card, unified state cadastral system, category, legal regime.

### Абстрактный

В данной статье кратко раскрыта сущность ведения земельного кадастра. Даётся понимание государственного земельного кадастра.

### Ключевые слова

Земельный кадастр, карта, единая государственная кадастровая система, категория, правовой режим.

**Kirish.** Yer kadastro, davlat yer kadastro — yagona davlat kadastrlari tizimining asosiy tarkibiy qismi, yer resursining tabiiy, xo‘jalik, huquqiy rejimi, toifalari, sifat xususiyatlari va qimmati, yer uchastkalari o‘rni, o‘lchamlari, chegarasi va maydoni, ularning yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va mulkdorlar o‘rtasidagi taqsimoti to‘g‘risidagi ma’lumotlar hamda hujjatlar majmui.

**Asosiy qism.** Yer kadastro „Davlat yer kadastro to‘g‘risida“gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni (1998-yil 28-avgust) va ushbu qonunga oid me’yoriy hujjatlar, yo‘riqnomalar va uslubiy ko‘rsatmalar asosida yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarning kafolatlarini ta’minlash, yerlardan oqilona foydalanish, ularni qayta tiklash va muhofaza qilish uchun kadastr ma’lumotlaridan foydalanishning huquqiy asoslarini belgilashga qaratilgan davlat tadbirlar tizimi hisoblanadi. yer kadastriga doir



axborotlarni bir tizimga solinishi ularni saqlash, tahlil qilish va yangilab turish ishlarini ham o‘z ichiga oladi. Yer kadastrini yuritish quyidagi tamoyillarga asoslaniladi: mamlakat yer fondinn to‘la qamrab olish, fazoviy koordinatalarning yagona tizimini qo‘llash, axborotlar ishlab chiqish metodining birligi va yer kadastriga oid axborotlarning to‘g‘ri bo‘lishi.

Yer kadastrini yuritish jarayoni quyidagilarni o‘z ichiga oladi: aerokosmik suratga olish, topografiya — geodeziya, kartografiya, tuproqshunoslik, agrokimyo, geobotanika, gidrogeologiyaga oid va boshqa izlanishlar va tadqiqotlarni o‘tkazish, yerlarni miqdor va sifat jihatdan hisobga olish va baholash, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarini davlat ro‘yxatiga olish; yerlarni taqsimlash, ulardan foydalanishni nazorat qiluvchi davlat xizmat organlarini faoliyatini muvofiqlashtirish; yerlarning holati, mavjudligi va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi hisobotlarni tuzish; joriy (mavsumiy) tadqiqotlar, suratga olish, yer o‘lchash ishlarini hamda yer monitoringi ma’lumotlaridan foydalangan holda yer kadastriga oid axborotlar bankini yaratish va uni tartibga solib turish.

Yer kadastro tumanda (shaharda) quyidagicha amalga oshiriladi: yer uchastkalariga bo‘lgan huquqni va yer uchastkalariga doir bitimlarni davlat ro‘yxatiga olish; yer kadastro maqsadlari uchun suratga olish; yer uchastkalari egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijara chilar va yer uchastkalari mulkdorlaridan ma’lumotlar olish, ularni to‘g‘riligini tekshirish, yer kadastriga oid hujjatlarga joriy o‘zgartirishlar kiritish. Yer kadastrini yuritish jarayonida har yilning 1 yanvariga yer resurslarining holati to‘g‘risidagi milliy hisobot tuziladi (yana qarang: Yer balansi).

Rivojlangan davlatlarda ham yer kadastro yuritiladi. Uning ma’lumotlaridan yer egalariga soliq solish, yerdan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan tijorat ishlarini tartibga solish, yer bo‘yicha bitishuv va nizolarni hal etish, yerni garovga qo‘yish va b.da foydalaniladi. O‘zbekiston Respublikasida yer uchastkalariga bulgan huquqlarni davlat ro‘yxatiga olish va yerlarni miqdoriy va sifatini hisobga olish. Yer resurslari davlat qo‘mitasi tomonidan qabul qilingan nizomlar va me’yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Yer kadastrini yuritish O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi yer resurslari bo‘yicha tuman xizmatlari tomonidan, shahar va shaharchalarda esa O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xuzuridagi Geodeziya, kartografiya va davlat kadastro bosh boshqarmasining ko‘chmas mulk davlat kadastro tuman va shahar xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yer kadastro uch bo‘limga bo‘linadi. Ular yer uchastkalarni ro‘yxatga olish, yerni iqtisodiy baholash hamda tuproq bonitrovkasidir. Ushbu ishlar turkumi shahar (shaharcha) yoki tuman hokimiyati qoshidagi Yer resurslari va davlat kadastro xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

Yer uchastkalarini ro‘yxatga olish — tuman yoki shahar hududida joylashgan yer uchastkalarini Yer resurslari va davlat kadastro davlat xizmat mutaxassislari tomonidan Yer Kadastro kitobiga qayd etish jarayonidir. Qayd etishda yer uchastkasi to‘g‘risida jamiki ma’lumotlar, masalan, yer uchastkasi mulkdorining rasmiy ma’lumotlari, uchastka joylashgan manzil, qo‘shni uchastkalarning yuridik nomlari, yer turlari, tuproq ball boniteti va hokazo ma’lumotlar Yer Kadastro kitobida o‘z aksini topadi.



ResearchGate



SEMANTIC SCHOLAR




**IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245**

**VOLUME 7, ISSUE 2, 2024**

Yerni iqtisodiy baholash — yer uchastkasining tuproq unumдорлиги, suv manbalari, tizimi, tehnika qurilmalari va ishchi kuchlarlari bilan ta'minlanganlik darajasi, aholi punktidan joylashish masofasi va shu kabi uchastkasidan foydalanishga bevosita ta'sir ko'rsatadigan omillarni qamrab oladigan murakkab jarayon hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining «Davlat yer kadastri to'g'risida»gi qonuni. T.:Adolat, 2010
2. O'zbekiston Respublikasi yer resurslarining holati to'g'risida Milliy hisobot. T.: Yergeodezkadastr davlat qo'mitasi, 2012
3. Avezboyev S., Volkov S. Yer tuzishni loyixalash darslik. T.: yangi asr avlod, 2004,
4. <http://www.Tsure.ru/>;
5. <http://www.guz.Ru/>



**WORDLY**  
**KNOWLEDGE**